

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-11/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**

**Бош муҳаррир:***Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Тахрир ҳайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.</i>	<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Рашид Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рўзибоев Рашид Юсуфович, тиб.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i>
<i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Бахоридович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№11/4 (95), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 219 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

**МУНДАРИЖА**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<b>Abdumalikova D.</b> Leksikologiya va unga umumiy tavsif .....	5
<b>Abdusamadov Z.</b> Ways of translating phraseological units in simultaneous interpreting .....	7
<b>Adambayeva N.</b> Xushmuomalalik kategoriyasi maksimalari tadqiqiga aksiolingvistik yondashuv .....	14
<b>Ahmedova M.</b> “Riyozi-d-davla”da antroponimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi .....	17
<b>Ahmedova V.A.</b> Erkin A‘zam dramalarida plastik obraz yaratishning o‘ziga xosligi .....	21
<b>Allanazarova S.X.</b> O‘zbek badiiy onomastikasidagi mashhur ismlarning kelib chiqish omillarining tahlili .....	23
<b>Amonova Z.B.</b> Nemis tilida ot so‘z turkumiga oid ijtimoiy-siyosiy neologizmlar tavsifi .....	25
<b>Aqmanova Sh.A.</b> Biblionimlarning semantik-tipologik xususiyatlari .....	27
<b>Bazarov S.B.</b> Ramzlarga burkanga hayot voqeligi zahirida inson qismati .....	30
<b>Bobojonova Sh.</b> Diskurs, ta’limiy diskurs va nutqning tarkibiy qismlari va ularning xususiyatlari ...	33
<b>Bobomurodova Sh.E.</b> O‘zbek xalq maqollarida qo‘llanilgan sonning ifoda imkoniyatlari .....	35
<b>Do‘smatov H., Qodirova X.</b> Askiya ustalari laqabining Xorazm shevalarida mavjud ko‘rinishlari .	37
<b>Egamberdieva Sh.</b> Psycholinguistic approach to the study of speech impact in advertising texts .....	39
<b>Egamnazarova Z.</b> Rieltor va broker terminlarining lingvistik xususiyatlari tadqiqi masalasi .....	42
<b>Erdanova S.A.</b> Modeling issues of “пул”, “деньги” and “money”, concepts in interlingual discourse .....	44
<b>Hazratqulova O.</b> Kognitologik konseptining tilshunoslikda tutgan o‘rni .....	46
<b>Jo‘rayev H., Anvarova D.</b> Jahon xalqlari eposida mushtarak va farqli jihatlar .....	49
<b>Khujamberdieva G.</b> Some comments on toponymic phraseological units in english and uzbek languages .....	51
<b>Khusanov E.D.</b> English literary language and dialectisms in it .....	53
<b>Kosimova M.U.</b> The development of uzbek language stylistics .....	55
<b>Koziyeva I.K.</b> Millatlararo muloqotda o'zbek antroponimlarining o'rni .....	57
<b>Mamajonova E.M.</b> Theoretical views of uzbek scientists on the use of the term "concept" in contemporary cognitive linguistics .....	61
<b>Muxtorova M.I.</b> “Qayg‘ularimiz zimistoni” (The winter of our discontent) romanida bosh qahramon talqini .....	63
<b>No‘monova R., Shodiyeva A.</b> Badiiy matn tahlilining asosiy yo‘nalishlari .....	65
<b>Qayumov A., Isaqova J.</b> O‘zbek adabiyotida bola obrazi talqini .....	67
<b>Rashidova F.</b> Charlotta Brontening «O‘qituvchi» asarida erkak va ayol munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari .....	69
<b>Ruzieva M.H.</b> Interpretation of socio-communicative and lingua-cultural aspects in translator’s thinking .....	71
<b>Sayitqulova Z.X.</b> Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida qahramonlararo munosabatlarning lingvokulturologik tahlili .....	73
<b>Suyarova A.I.</b> Sharof Rashidov publistikasining ijtimoiy xayotdagi o‘rni .....	74
<b>Teshaboeva Z.Q., Begimova M.X.</b> O‘quv metodik terminlarning xorijiy olimlar ishlarida o‘rganilishi .....	77
<b>Teshaboyeva Z.Q., Xalilova D.J.</b> Tibbiyot sohasining stomatologiya terminlari xususida .....	82
<b>Toshmatov A.</b> Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining chet tilida yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning lingvodidaktik omillari .....	87
<b>Xaitov X.X.</b> “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan dialektal oronimlarning talqin va tahlili .....	89
<b>Xusanova Z.</b> Badiiy matnda laqablarning qo‘llanilishi haqida .....	92
<b>Xoliqulova G.Yo.</b> Hindiston turkiyazon adabiyotini o‘rganishda hasanxoja nisoriy tazkirasining o‘rni va ahamiyati .....	97
<b>Yadigarova S.B.</b> O‘zbek tilidagi kiyim nomlarining semantik tahlili .....	100
<b>Yakubov M.K.</b> “Ingliz va o‘zbek dramaturgiyasida amir temur shaxsi talqini” dissertatsiyasi mavzusi haqida ayrim mulohazalar .....	102
<b>Абдуллаев Х.Б.</b> К вопросу о значении понятий «денотация» и «коннотация» .....	105
<b>Абдуллаева Р.</b> Особенности перевода медицинских терминов с русского на узбекский язык .....	107
<b>Азимов У.С.</b> Таржима ва оддий фольклоризм .....	110
<b>Азимова М.С.</b> Садриддин Салим Бухорий – эссенавис .....	113
<b>Асатова Г.Р.</b> Характеристика современных экономических терминологических систем .....	115
<b>Аскарова Ж.Б.</b> Лукмони Ҳаким – ҳикмат эгаси .....	118
<b>Атаев А.</b> Ўрта асрлар Хоразм арабийзабон адабий муҳитидаги айрим ғазаллар хусусида .....	120
<b>Ахадова С.С.</b> Сравнительно-типологическое исследование юридической терминологии испанского и узбекского языков .....	124
<b>Ахмедова Г.Ю.</b> Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча инглизча икки тилли ўқув луғатлари рангларнинг ифодаланиши .....	126

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «Toshkent» ensiklopediyasi. 2009 yil
2. Axmedjanov M.M., Xo\_jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014

UO'K 372.881.1

## O'QUV METODIK TERMINLARNING XORIJIY OLIMLAR ISHLARIDA O'RGANILISHI

*Z.Q.Teshaboeva, f.f.d., ToshDO'TAU, Toshkent;*  
*M.X.Begimova, tayanch doktorant, ToshDO'TAU, Toshkent*

**Annotatsiya.** Bugungi kun nuqtayi nazaridan o'quv-metodik terminlarni tadqiq etish, o'rganish, tizimli tahlil qilish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning katta qismini tashkil etmoqda. Shu sababdan o'quv-metodik terminlar haqidagi dunyo olimlarining ilmiy izlanishlaridagi fikr va mulohazalari, o'quv-metodik terminologiyasi sohasidagi muammo va tarjima masalalariga ushbu maqolada ko'proq o'rin berildi.

**Kalit so'zlar:** o'quv-metodik terminlar, ilmiy pedagogik bilim, o'qitish, ta'lim, pedagogika, terminologik tizim, qiyosiy tahlil.

**Аннотация.** Сегодняшний день анализ, исследование и изучение образовательных терминов является важной частью реформ в сфере образования. Поэтому в статье упоминаются взгляды ученых и их научные исследования на приведенные учебно-методические термины, некоторые проблемы, возникающие при переводе учебно-методических терминов. Автор попытался выявить специфические черты учебно-методических терминов.

**Ключевые слова:** учебно-методические термины, научно-педагогические знания, преподавание, воспитание, педагогика, терминосистема, сравнительный анализ.

**Abstract.** In terms of today, analyzing, researching and studying of educational terms is a major part of reforms in the sphere of education. Therefore, the views of scientists and their scientific researches on educational-methodical terms cited, some problems, which occur during the translation of educational-methodical terms are mentioned in this article. The author tried to identify the specific features of educational methodical terms.

**Key words:** educational-methodical terms, scientific pedagogical knowledge, teaching, education, pedagogy, terminological system, comparative analyses.

**Kirish.** Tarixiy jihatdan dunyodagi ilmiy-pedagogik bilimlar pedagogik tadqiqot predmeti va kognitiv faoliyatni aks ettiruvchi tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, pedagogika fani ushbu tushunchalarda rivojlana bordi. Vaqt o'tgani sari ushbu tusunchalar terminlarga aylandi va fan taraqqiyotini tezlashtirdi. Globallashuv, madaniyotlararo muloqot jarayonining kengayishi va texnika taraqqiyoti orqali axborot asriga kirib kelishimiz fan taraqqiyotini tezlashtirgani barobarida ba'zi kamchilik va muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, bu terminologiya tizimida yaqqol namoyon bo'ldi.

Ushbu jarayonni o'quv-metodik terminologiya sohasi ham boshidan o'tkazmoqda. Sir emaski, bugungi kunda ham o'zbek, ham ingliz tillarining o'quv-metodik terminologiyasida jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda, soha terminologiyasida har kuni yuzlab neologik terminlar yuzaga kelmoqda, ushbu terminlar ifodalangan tushunchalarning ma'nosini aniq anglab yetilmasdan turib, o'rniga yangi terminlar vujudga kelmoqdaki, bu esa fandagi noaniqlik va tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Ayni paytda asosan xorijiy tillarni o'qitish metodologiyasini o'rganishda ko'plab yangi terminlar pardo bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga [<https://lex.uz/docs/>] muvofiq, dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni olib kirish talab etilmoqda. Xorijiy tillarini o'qitishda yangi metodlar va yondashuvlarning kirib kelishi o'qituvchilar va tarjimonlardan nafaqat matndagi maxsus terminologik birliklarni taniy bilishni, qolaversa ularni mos ravishda maxsus terminlardan foydalanib adekvat tarjima qilishni ham talab etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Terminologiya, pedagogik terminologiya, o'quv metodik terminologiya, til o'qitish terminologiyasi bo'yicha jahonda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Reformatskiy A.A, Dewey John, Danilenko V.P, Paluanova X, Galaguzova M.A, Shtinova G.N va boshqalarning ushbu sohada xizmatlari katta.

Yutimiz olimlari tomonidan termin va terminologiya bo'yicha izlanishlar olib borilgan bo'lib, asosiy urg'u pedagogik terminlar va ularni o'qitishga qaratilgan. Xususan, H.Dadaboyev, J.Jalolov, G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev, L.Reshetova, M.Nizomova va boshqa olimlarning o'zbek tili

terminologiyasi, jumladan, pedagogik terminologiyasi rivojiga katta hissa qo'shganligini aytishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Turli strukturaviy tillarni qiyosiy tipologik o'rganish tilni yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi, o'zbek va ingliz tillarining leksik materiallarini qiyosiy o'rganish va ularning o'zaro ta'siri katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Hozirgi vaqtda tizimli usuldan turli grammatik tizimlardagi tillarni, shuningdek, bir xil grammatik tuzilishga ega bo'lgan tillarni qiyosiy o'rganishda tobora ko'proq foydalanilmoqdaki, buni lingvistik tadqiqotning zamonaviy usullaridan biri deb hisoblash mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu usul tilning ma'lum qatlamlarini o'rganish har doim ham bir xil darajada samara beravermaydi. Xususan, tilning leksik qatlamini o'rganishga tizimli yondashish har doim ham qulay bo'lavermagani kabi leksik materialni tizimli o'rganish tilning boshqa qatlamlari materiallariga qaraganda ancha murakkab bo'ladi. Terminologik jarayonni o'rganishda esa bu usul ancha qulay hisoblanadi.

A.I. Komarova terminlarni alohida jihat sifatida emas, balki aniq til tizimining maxsus leksikasi sifatida o'rgangan [Abduazizov 2010, 14-bet]. Maxsus semantikada yangi atamalarning paydo bo'lishi u yoki bu tarzda til orqali sodir bo'lishini ta'kidlaydi.

O'quv-metodik terminologiyani o'rganish fanning ilmiy rivojlanishiga olib keldi. Yu.I. Konshina va E.I. Vernoslovalarning fikrlari ham buni tasdiqlaydi: "Terminologiya bilan bog'liq masalalar tilshunoslik nuqtai nazaridan ham, ular tegishli bo'lgan fan nuqtai nazaridan ham qiziqarlidir, chunki fanning kontseptual va terminologik apparatini o'rganish ilmiy bilimlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi" [Коньшина, Верносова 2020. № 5. С. 141–154].

N. G. Frolova ilmiy - pedagogik bilimlar integratsiyalashsa uning yagona fan sohasiga kirishi uchun terminlarni aniqlashtirib olish zarur, deb hisoblaydi. Shu munosabat bilan, terminologik tushunchasining aniqlik va o'ziga xoslik tamoyili dolzarblashadi. Ushbu tamoyil mantiqiylik va ratsionalizm, ma'lumotlilik va izchillik, qat'iylik va ravshanlik, aniqlik va o'ziga xoslikka asoslanadi. Prinsipning mohiyati o'qituvchilarning muloqot tili shaklini, shuningdek, ilmiy bilimlarni qayta ishlash, saqlash va tarqatishni tartibga solishdan iboratdir [<http://pedsovet.alledu.ru>].

Bugungi kunda o'quv-metodik soha terminologiyasini o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Ushbu terminologiya o'qitish jarayonida qo'llanadigan barcha terminlarni ifodalashga xizmat qiluvchi maxsus terminologiyani o'zida mujassamlashtiradi.

Avvalo, "terminologiya va terminologik tizim" degan ikki tushunchaga e'tibor qaratsak. Zamonaviy hayotda terminologiya juda muhim o'rin tutadi. Ya'ni maxsus lug'atga ega bo'lmasdan, biron bir sohani o'rganish va rivojlantirish mumkin emas. Fanning jadal rivojlanishi mavjud terminlar tizimlarining ham xuddi shunday tez rivojlanishiga va o'zgarishiga olib keladi, bu ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi va ularni hal qilish katta amaliy ahamiyatga ega. Shunday qilib, terminologiyani standartlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, terminlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonini optimallashtirish kerak. Har bir faoliyat va bilim sohasining o'ziga xos terminlar tizimi mavjud, shuning uchun terminlarni bilish amaliy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchun ham, fan bilan bevosita shug'ullanuvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Har bir rivojlangan tilda minglab terminlar va terminlar tizimi mavjud. Bu hodisani to'g'riroq tushunish hamda terminshunoslik va terminologiya o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash uchun, nazarimizda, mashhur olimlarning "terminologiya" va "terminologik tizim" tushunchalariga bergan ta'riflarni eslab o'tish zarur. Demak, termin (lot. terminus –chegara, had) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasidir [<https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/termin/>].

Terminologiya terminlar haqidagi fan. Turli ilmiy-texnikaviy tushunchalarni nomlashda qo'llanadigan so'zlar terminlar, terminlarning xossalarini, tartiblash va tavsiflash tamoyillarini o'rganuvchi fanga esa terminologiya deyiladi. Nazariy va amaliy terminologiya doirasidagi asosiy o'rganish obyektlari terminlar to'plami – terminologiya va terminologik tizimlardan iborat bo'ladi. [Ахманова 1968. 607 с].

1	Terminologik tizim – bu maxsus ma'noni ifodalovchi so'z va so'z birikmalarining yig'indisi, majmui.
2	Terminologiya – bu terminlar, ularning grammatik tuzilishi va tilda amal qilishi bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik fanining bir bo'limidir [Реформатский 1986, С.8].

G.O. Vinokur terminologiyani ma'lum bir sohada bilimlarni to'plash va tushunishning tarixiy jarayonini aks ettiruvchi o'z-o'zidan shakllangan terminlar majmuasi sifatida ta'riflaydi. Terminologiya ko'p ishlatiladigan lug'at hisobiga to'ldiriladi va o'z navbatida uni boyitadi. [Винокур 1939, 3-54].

D.S. Lottening ta'kidlashicha, "Ilmiy terminologiyalar tartibsiz atamalarga qarama-qarshi bo'lgan tartiblangan terminlar to'plamidir" [Лотте 1961, 157 с.). V.P. Danilenkoning fikricha esa, "Terminologiya - bu kasbiy aloqa sohasida faoliyat yurituvchi fan va texnikaning turli sohalarini uchun maxsus nomlarning umumiy to'plami"dir. Tadqiqotchi "terminologiya" atamasini ikki tushunchaga mos kelishini ham ta'kidlaydi. Tor ma'noda terminologiya - bu bir bilim sohasining tegishli tushunchalar majmuini aks

ettiruvchi terminlar yig'indisidir. Umuman olganda, bu barcha faoliyat sohalari uchun terminlarning umumiy to'plamidir [Даниленко1977, 246 с].

Ko'rib turganimizdek, termin va terminologiya so'zlariga to'xtalib o'tdik. Endi o'quv-metodik terminologiya hodisasini to'liq yoritish uchun xorijiy olimlarning o'quv-metodik terminologiya bo'yicha ilmiy qarashlariga to'xtalsak.

**Tahlil va natijalar.** Ta'lim sohasidagi integratsiya jarayonlari o'quv-metodika sohasida sezilarli o'zgarishlarga, mavjud bo'lgan tizimning yangilanishiga va o'quv-metodik terminologiya sohasida bir qator yangi muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Eng muhim muammolar sifatida mutaxassislar quyidagilarni sanab o'tadi:

- o'quv-metodik terminlarning noaniqligi, bir atama bir necha xil tushunchalarga ega bo'lsa va natijada olimlarning bir-biri bilan muloqotining qiyinlashuvi; fan tilini og'zaki va adabiy tildan ajratish; yangi o'quv-metodik terminlarni ular aks ettirgan hodisalarning yangiligini isbotlamasdan, fan tiliga kiritish.

1990-yillardan buyon ushbu muammolar tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi. Ushbu holat esa tadqiqotchilarning o'quv-metodik terminologiyani rivojlantirishning turli jihatlariga qiziqishini oshirishga yordam beradi. O'quv-metodik terminologiyani tartibga solish va tizimlashtirish, ilmiy va o'quv nashrlarida atamalarni qo'llashda noaniqlik muammolarini o'rganish, standartlashtirish imkoniyatlari, shu jumladan xalqaro, ilmiy terminologiya va boshqa masalalari mavjud. Biroq, terminologiya sohasidagi faol ilmiy-tadqiqot ishlariga qaramay, ko'plab muammolar haligacha o'z yechimini topmagan.

Ular, birinchi navbatda, pedagogika fani terminologiyasidan foydalanishning rivojlanishi, uslubiy jihatlarini o'z ichiga oladi, yani, pedagogik terminologiyani tartibga solish va tizimlashtirishning eng maqbul usullarini izlash zarur. Pedagogikaning terminologik tizimining faoliyat ko'rsatishi bo'yicha uslubiy qo'llanmalarini izlash M.A.Galaguzova va E.V.Tkachenkolar tomonidan tahrir qilingan "Pedagogika va ta'limning kontseptual apparati" (1-5-sonlar) to'plamlari materiallarida eng muhim yo'nalishlardan biri bo'ldi. Ko'plab ilmiy vakillar, jamoatchilik, amaliyotchi o'qituvchilar pedagogik terminlar tizimining terminlaridan foydalanish, tarkibi va tuzilishidagi murakkab vaziyatga e'tiborni qaratadi. Xususan, bu muammolarni hal etish yo'llaridan biri sifatida pedagogik terminologiyada o'qituvchilarning kasbiy savodxonligini oshirishning ajralmas elementi sifatida malaka darajasini oshirishga xizmat qilishi lozimligi ko'rsatildi. Ushbu muammoning mantig'ida V.V.Kraevskiy ta'kidlaganidek: "Pedagogikada ilmiy terminologiya bilan bog'liq bo'lgan munosabat yaxshi emas." Terminologiyaning ravshanligi va noaniqligi ilmiy metodologiyaning ajralmas talabi bo'lib, qaysi so'zlarning qo'llanishi va qanday kontseptual muhitdan olinganligi fanni umuman befarq qoldirmaydi" [Краевский1994,43,115].

Umuman olganda, o'quv-metodik terminologiyani yangilash va uni qayta ishlash va tizimlashtirish bo'yicha katta va mashaqqatli tayyorgarlik ishlarini olib borish zarurati o'rtasida ma'lum bir qarama-qarshiliklar mavjud [Nizomova Mohinur, Volume 2, Issue 03 March]. Bu qarama-qarshilikni o'quv-metodik terminlarni tizimlashtirish hamda terminologik ensiklopediya va lug'atlarni tuzishdagi yondashuvni o'zgartirish orqali bartaraf etish mumkin.

Istiqbolli yondashuv - ushbu tarixiy o'quv-metodik terminologik lug'atni tayyorlash. Unga kiritilgan terminlarning mazmun-mohiyatini yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda ochib berish badiiy adabiyotlardan, ilmiy ishlardan, davriy nashrlardagi maqolalardan, pedagogik nashrlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, me'yoriy hujjatlardan qisqacha iqtiboslar orqali keltirilishi mumkin. Iqtibosda aks ettirilgan atamani qo'llash konteksti pedagogik tushunchani aniqroq ko'rsatishga va atama asosidagi hodisaning mohiyatini tushunishga imkon beradi. Bundan tashqari, keltirilgan iqtiboslarning jami har bir atamaning ma'nosini ochib beruvchi qisqa maqola uchun material bo'lib xizmat qiladi.

O'quv-metodik lug'at tuzishda yana bir muhim yondashuv - pedagogik terminlarni o'z ichiga olgan manbalar va ulardan iqtiboslarni tanlashda tarixiy tamoyilga amal qilishdir. Bu iqtiboslarni xronologik tartibda joylashtirish, ular olingan manbaning tabiatini hisobga olgan holda, chunki zamonaviy lug'at foydalanuvchisi ma'lum bir o'quv-metodik terminlarning shakllanishi va rivojlanishining butun yo'lini bilishi kerak. Shunday qilib, lug'at o'quvchiga avvalgi avlodlarning boy madaniy va ilmiy tajribasini yetkaza oladi. Nomlangan yondashuv o'quv-metodik lug'at uchun terminlarni tanlashda, ularning tushunchalarini aniqlashda va muayyan pedagogik hodisalar bilan bog'lanishni o'rnatishda tuzuvchining mantiqiyiligini yanada "shaffof" qiladi. O'quv-metodik lug'atlarni tuzishda taklif etilayotgan tarixiy-terminologik yondashuvni amalga oshirishda manbalar va ulardan iqtiboslarni tanlash printsipi, har bir lug'at yozuvi matnida ularning turiga qarab joylashish tartibi bilan bog'liq bir qator qiyinchiliklar muqarrar ravishda yuzaga keladi.


Umumiy ilmiy lug'at - ma'lum fanning usul va vositalarini kategoriyalashdan boshlanadigan lug'at. Aynan umumiy ilmiy so'zlarning kategorik holati ularni termin deb atash imkonini beradi. Binobarin tillarni o'qitish nazariyasi va metodikasida: approach (yondashuv), competence (kompetentlik), method (metod),

strategy (strategiya, texnika) kabi atamalarni umumiy ilmiy lug'at tarkibiga kiritish mumkin.[ Лебедев 2005,31].

O'quv metodik terminlari kategoriyalashtirishni biz ham umumiy ilmiy terminlardan boshlaganmiz. Ingliz tili o'qitish metodikasi terminlari bilan bir qatorda pedagogika va psixologik terminlar tizimlashtirilishga harakat qilingan. Ko'pgina terminlar tarjimalari o'zbek tili o'qitish metodikasi bilan mos kelishi mumkin va shunday terminlar borki ularni tarjima qilishda muammoga duch kelish mumkin. Bunday holatda adekvat tarjima yoki muqobil variant qo'llanilgan. O'quv metodik matnlar tarjima qilinishi jarayonida, muallifning maxsus matnga maxsus terminlar yordamida kiritgan axboroti, qabul qiluvchi tomonidan yaxlit holda tushunib yetishiga maxsus leksik birliklarning adekvat tarjimasi berilishi bilan bog'liq bo'ladi. Agar tarjimon maxsus matn tarjimasining adekvatligiga erisha olmasa, tarjima paytida terminologik ma'lumotlar o'zgarishi yoki yo'qolishi mumkin, bu asl ma'lumotning tasvirini buzilishiga va natijada noto'g'ri tushunishga yoki bu o'quv metodik matnning ma'nosini ataylab noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Quyidagi jadvallarda biz o'quv metodik terminlarni kategoriyalash va ularning izohlarini tarjima qilish orqali berishga xarakat qildik.

1-Jadval



Jadvalda berilgan terminlarning izohlari va ularga tavsiya etiladigan muqobil tarjimalar quyidagicha:

**Approach-yondashuv**, o'qitish yondashuvi tilning tabiati va tillarni qanday o'rganish haqidagi nazariya. Odatda u o'qitish tartib-qoidalarini tanlashda rahbarlik qiluvchi tamoyillar to'plami orqali namoyon bo'ladi.

Masalan, "kommunikativ yondashuv" va "vazifaga asoslangan o'rganish" yondashuvi"[Huszi, Beregszasz, 2013]

**Method-metod, usul, yo'l**, metod termini „ta'lim usullari yig'indisi“ va „ta'limning yo'nalishi“ ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida ishlatilsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffiz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratamiz.

Masalan, chet tili o'qitishning tajjima metodi, to'g'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod, audiovizual metod va h.k.[ Jalolov 2012,18].

**Holistic learning approach-yaxlit ta'lim yondashuvi**, Samarali va keng qamrovli o'rganish uchun o'quvchi shaxsining barcha tomonlarini (intellekt, his-tuyg'ular, tasavvur, tana) to'liq faollashtirishga intiladigan yondashuv [UNESCO International Bureau of Education 2013,29].


**Mim-mem method- taqlid qil yodda saqla usuli**, bu termin audio-lingual yondashuviga tegishlidir, chunki bu metodda takrorlash mashqlari va dialoglari qo'llanilib, ularda namuna sifatida berilgan materilallarga taqlid qilish(mimicry) va yodda saqlash(memorization) usullari qo'llaniladi. [Richards, Schmidt 2010,365].

**The silent way** –Gattegno tomonidan ishlab chiqilgan chet tilini o'rgatish usuli bo'lib, u imo-ishoralar, mimika, ko'rgazmali qurollar, devor jadvallari va xususan, o'qituvchining darsda talabalarga gapirishga yordam berish uchun Cuisenaire tayoqchalari (turli uzunlikdagi va rangdagi yog'och tayoqlardan) foydalanishidir. Bu usulning nomlanishi o'qituvchining nisbiy jimligidan olingandir." [Huszi, Beregszasz 2013]

Ko'rinib turibdiki yuqorida keltirilgan terminlarning ona tilida izohlab berilishi mumkin ammo ushbu terminlarning aynan tarjimalari maxalliy til o'qitish metodikasida qo'llanilmasligi mumkin. Lebedov D.I o'z tadqiqotida shuni aytib o'tadiki lingvodidaktik terminlarni adekvat tarjima qilish uchun tilda yangi

terminlarning paydo bo'lish mexanizmlarini, umimiy ishlatiladigan so'zlarning terminga aylanish jarayonlarini hisobga olish, shuningdek, terminlarning mavjud shakllari va ularning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Terminologik birliklarning shakllanish jarayonlarini o'rganish tarjimon yoki terminologga termin yaratishning eng samarali usullarini aniqlashga yordam beradi, bu esa termin tarjimasida tayyor analoglar mavjud bo'lmaganda terminshunos yoki tarjimonlarga adekvat termin ishlab chiqish yoki yaratish imkonini imkonini beradi [Лебедев2005,41]. Ushbu fikrga qo'shilgan holda biz xam ba'zi terminlarning adekvat tarjimasini berishga harakat qildik.

## 2-Jadval



Jadvalda keltirilgan terminlarning muqobil tarjimalari quyidagicha.

**Syllabus design and curriculum activities-** O'quv rejasini yaratish va o'quv dasturdagi mashg'ulotlar.

**Needs analysis-** til o'rganuvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish.

Ingliz tilidagi metodik adabiyotlarda curriculum and syllabus deb yuritiladigan termin ona tilimizda o'quv rejasini va dasturi deb tarjima qilinadi ammo ba'zi metodik kitoblarda bu va shunga o'xshash bir qancha terminlar matnning yoki kontekstning ma'nosidan kelib chiqib tarjima qilinadi. Bu esa terminlar ustida yanada ko'proq tadqiqot olib borilishi kerakligini va o'quv metodik lug'at yaratilishi muhimligini anglatadi. Ushbu lug'at turli yondashuvlarga asoslanib tuzilishi talab etiladi.

**Xulosa va takliflar.** O'quv-metodik terminlari lug'atini tuzishda yana bir muhim yondashuv - pedagogik terminlarni o'z ichiga olgan manbalar va ulardan iqtiboslarni tanlashda tarixiy tamoyilga amal qilishdir. Iqtiboslarni xronologik tartibda joylashtirish, ular olingan manbaning tabiatini hisobga olgan holda bo'lishi, chunki zamonaviy lug'at foydalanuvchisi ma'lum bir o'quv-metodik terminlarning shakllanishi va rivojlanishining butun yo'lini bilishi lozim. Shunday qilib, lug'at o'quvchiga avvalgi avlodlarning boy madaniy va ilmiy tajribasini yetkaza oladi. Nomlangan yondashuv o'quv-metodik lug'at uchun terminlarni tanlashda, ularning tushunchalarini aniqlashda va muayyan pedagogik hodisalar bilan bog'lanishni o'rnatishda tuzuvchining mantiqiylikini yanada "shaffof"ligini ta'minlaydi. O'quv-metodik lug'atlarni tuzishda taklif etilayotgan tarixiy-terminologik yondashuvni amalga oshirishda manbalar va ulardan iqtiboslarni tanlash prinsipi, har bir lug'at yozuvi matnida ularning turiga qarab joylashish tartibi bilan bog'liq bir qator qiyinchiliklar muqarrar ravishda yuzaga keladi.

Oxirgi yigirma yillikda pedagogik terminologiyani tartibga solish va tizimlashtirish bo'yicha faol ishlar olib borildi. Bu esa o'z echimini talab qiladigan muammolar ro'yxatini belgilashga imkon beradi. Quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin: o'quv-metodik terminlarning noaniqligi, ingliz tilidagi o'quv-metodik terminlarning chet tillarida takrorlanishi, yangi so'zlarning ilmiy muomalaga kiritilishi, muayyan tushuncha va hodisa bilan bog'lanmagan holda o'zini termin qilib ko'rsatish va hokazo. Ushbu muammolarni hal qilishning asosiy usullaridan biri bu soha bo'yicha tizimli o'rganishlar olib borish hamda tadqiqotlar orqali quyidagilarni yuzaga keltirish:

- O'quv-metodik sohasiga oid tarixiy ensiklopedik lug'at ishlab chiqish;
- O'zbek tiliga chet tilidan kirib kelgan neologik o'quv-metodik terminlarining mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi uslubiy qo'llanma ishlab chiqish;
- Zamonaviy o'quv-metodik terminologiyaning texnologik imkoniyatlarini ochib berish
- Pedagog kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish jarayonida yangi terminlarni o'qitish va o'rgatishning zamonaviy usullarini amaliyotga tatbiq etish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'quv-metodik terminologiyani tartibga solish va tizimlashtirish o'quv-metodik terminologiyaning butun vujudga kelishi va rivojlanish tarixini jiddiy o'rganish va tushunish asosida hamda o'zbek tili an'analari hisobga olgan holdagina amalga oshishi mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazizov A.A Tilshunoslikka kirish nazariyasi.-T:Sharq,2010.14-bet
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., Советская Энциклопедия, 1968. 607 с.
3. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. 1939. Т. V. С. 3-54.
4. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического анализа. М.: Наука, 1977. 246 с.
5. "Glossary of Curriculum Terminology" UNESCO International Bureau of Education, UNESCO-IBE 2013,29-bet.
6. Ilona Huszti, Beregszasz "Glossary on language teaching and learning",2013.
7. J.Jalolov,"Chet tili o'qitish metodikasi" TOSHKENT – 2012, 18-bet.
8. Jack C. Richards,Richard Schmidt "Longman \_ Dictionary \_ of \_ Language \_ Teaching \_ and \_ Applied \_ Linguistics", Fourth edition, 2010.
9. Коньшина Ю.И., Верносллова Е.И. Семантическая сеть как средство изучения терминологического слоя лексики монографии Дж. Дьюи «The Child and the Curriculum» Гуманитарные и социальные науки. 2020. № 5. С. 141–154.
10. Колесникова И. Л., Долгина О. А. Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков. СПб.: Русско-Балтийский информационный центр «Блиц»; Cambridge University Press, 2001. 224 с.
11. Краевский В.В. Методология педагогического исследования. - Самара: Изд. Сам.ГПИ, 1994.-р. 43, 115.
12. Лебедев Дмитрий Игоревич «Проблемы Адекватности перевода лингводидактических терминов на материале Русского и Английского языков» МОСКВА 2005, р.31,41
13. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. М.: Изд-во АН СССР,1961. 157 с.
14. Niyozova Mohinur - Problems of systematization of pedagogical terms and concepts in the scientific and pedagogical theory of comparable languages /American Journal Of Philological
15. Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – М., 1986. – С.8.
16. <http://pedsovet.alledu.ru/files0/files1/files629/files640/docs/48.html>.
17. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/termin/>

UO'K 81-13

## TIBBIYOT SOHASINING STOMATOLOGIYA TERMINLARI XUSUSIDA

*Z.Q. Teshaboyeva, f.f.d., dots., ToshDO'TAU, Toshkent*  
*D.J. Xalilova, tayanch doktorant, ToshDO'TAU, Toshkent*

**Annotatsiya.** Tibbiyot sohasining stomatologiya yo'nalishi jahon tilshunosligida o'rganilganligi va ta'lim sohasidagi termin birikmalarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadiki, ularni o'rganish universal va noyob tuzilishga ega ekanligini ilmiy-kasbiy tillar holatini saqlab qolish, ularni to'plash, umumlashtirish, jamiyatga va alohida kasbiy guruhlarga xizmat qilishini kognitiv nuqtai-nazardan yondashni talab etadi.

Ushbu maqola til vositalarini tejash qoidalari va nutqning o'sishida o'z aksini topgan bir necha xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan stomatologik terminlar tadqiqiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar.** stomatologiya, dentistry, soha, termin, tibbiy, tibbiyot, eponim, qo'llanma, izohli lug'at.

**Аннотация.** Тот факт, что в мировой лингвистике изучается стоматологическая область медицинской области и специфические характеристики терминосочетаний в области образования, показывает, что их изучение имеет универсальную и уникальную структуру, сохраняющую статус научных и профессиональных языков, чтобы полностью скрыть обобщение, требует когнитивного подхода для обслуживания общества и отдельных профессиональных групп.

Данная статья посвящена изучению изученных рядом зарубежных ученых стоматологических терминов, которые находят свое отражение в правилах сохранения языковых средств и роста речи.

**Ключевые слова:** стоматология, dentistry, область, термин, медицинский, медицина, эпоним, пособие, толковый словарь.

**Abstract.** The study of dentistry in medicine shows that it has universal and unique structure in the world linguistics and special features of term structures in education The study requires a cognitive approach to serve society and individual professional groups by making generalization, collecting and maintaining the case of scientific and professional languages.

This article is devoted to the study of dental terms studied by a number of foreign scientists, which are reflected in the rules for the preservation of language means and growth in speech.

**Key words:** stomatology, dentistry, field, term, medical, medicine, eponym, manual, consise dictionary.

**Kirish.** Rivojlanish cho'qqisiga chiqqan tibbiyot o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, ushbu sohaga oid terminlarning uzoq o'tmishdan shakllangani va doimiy yuksalishda ekanidan darak beradi. Asosan antik tibbiyotni yunonlar shakllantirishgan. Rim paydo bo'lgandan keyin Yunonistonning madaniy

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР АКАДЕМИЯСИ  
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

**№11/4 (95)  
2022 й., ноябрь**

Ўзбекча матн муҳаррири:	Рўзметов Дилшод
Русча матн муҳаррири:	Ҳасанов Шодлик
Инглизча матн муҳаррири:	Мадаминов Руслан, Ламерс Жон
Мусахҳиҳ:	Ўрозбоев Абдулла
Техник муҳаррир:	Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 07.11.2022  
Босишга рухсат этилди: 14.11.2022.  
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.  
Ҳажми 13,25 б.т. Буюртма: № 11-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими  
220900, Хива, Марказ-1  
Тел/факс: (0 362) 226-20-28  
E-mail: [mamun-axborotnoma@academy.uz](mailto:mamun-axborotnoma@academy.uz)  
[xma\\_axborotnomasi@mail.ru](mailto:xma_axborotnomasi@mail.ru)



**(+998) 97-458-28-18**